“ADOLAT”
MILLIY HUQUQIY AXBOROT MARKAZI
Guvohnoma № 636478
Litsenziya C-5669732

“HUQUQ va BURCH+” —
«ПРАВО и ДОЛГ+» —
"RIGHT and DUTY+"
Journal home page:
https://adolatmarkazi.uz/magazine/electron?id=341

2025-yil
5-son
dekabr
ISSN 3093-8546



Sanoat mulki obyektlarini himoya qilish usul va mexanizmlari va ularning rivojlanish tendensiyalari

Sohibjon Boboto‘xtayev,
Toshkent davlat yuridik universiteti
mustaqil izlanuvchisi
e-mail: abdusalimovich95@gmail.com

Аннотация. Ushbu maqolada sanoat mulki obyektlarini himoya qilishning zamonaviy usul va mexanizmlari, ularning amaliy qo‘llanishi hamda huquqiy tizimdagi o‘zgarishlar tahlil qilinadi. Shuningdek, mualliflik huquqi, patentlash jarayonlari, ekspertiza talablari va raqobatbardoshlikni oshirishda intellektual mulk himoyasining o‘rni yoritiladi. Mavzuga doir xalqaro tajriba ham ko‘rib chiqilib, himoya mexanizmlarining kelajakdagi rivojlanish tendensiyalari bo‘yicha xulosalar beriladi.

Калит сўзлар. sanoat mulki, patent, intellektual mulk, himoya mexanizmlari, mualliflik huquqi, rivojlanish tendensiyalari

Аннотация. В данной статье рассматриваются современные методы и механизмы защиты объектов промышленной собственности, их практическое применение и изменения в правовой системе. Анализируются вопросы авторского права, патентования, экспертизы, а также роль защиты интеллектуальной собственности в повышении конкурентоспособности. В работе изучается международный опыт и приводятся выводы о тенденциях дальнейшего развития механизмов защиты.

Ключевые слова. промышленная собственность, патент, интеллектуальная собственность, механизмы защиты, авторское право, тенденции развития

Annotation. This article examines modern methods and mechanisms for protecting industrial property objects, their practical implementation, and recent developments within the legal framework. It analyzes issues related to copyright, patent procedures, examination requirements, and the role of intellectual property protection in enhancing competitiveness. The study also reviews international practices and provides insights into future development trends of protection mechanisms.

Keywords. industrial property, patent, intellectual property, protection mechanisms, copyright, development trends

Bugungi zamonaviy va bozor iqtisodiyoti tobora rivojlanib borayotgan davrda innovatsiyalar, texnologik yangiliklar va ijodiy ishlanmalar iqtisodiy rivojlanishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Bu borada sanoat mulki obyektlarini huquqiy jihatdan himoya qilish masalasi tobora dolzarb bo‘lib bormoqda. Chunki har qanday ixtiro, foydali model yoki sanoat namunasi o‘z egasi uchun muhim iqtisodiy, ijtimoiy va ilmiy ahamiyatga egadir. Demak, ushbu obyektlarni himoya qilish usul va mexanizmlari va ularning rivojlanish tendensiyalari jamiyat taraqqiyoti uchun zarur vositalardan biri bo‘lib xizmat qiladi.

Sanoat mulki obyektlarini himoya qilish usul va mexanizmlari orqali ushbu obyektlarning mulkdorlari yoki tadbirkorlar o‘z mehnat mahsulini huquqiy jihatdan himoya qiladi, noto‘g‘ri yoki noqonuniy foydalanishdan saqlaydi, natijada ular yangilik yaratishga ko‘proq intilishadi. Bu esa fan-texnika rivoji va yangi texnologiyalar paydo bo‘lishiga olib keladi. Bundan tashqari, sanoat mulki himoyasi bozorda raqobatni ta’minlab, adolatli sharoit yaratadi. Bu orqali esa, investorlar, ishlab chiqaruvchilar investitsiyalarining himoyalanganligiga ishonch hosil qiladi hamda iqtisodiyotda barqarorlik va ishonch muhitini yaratadi.

Shuningdek, xalqaro savdo va hamkorlikni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etib, patentlar orqali sanoat mulkini eksport qilish osonlashadi va xorijiy kompaniyalar bilan hamkorlikda muhim rol o‘ynaydi.

O‘zbekiston Respublikasida sanoat mulki obyektlarini himoya qilish usul va mexanizmlari bir nechta yo‘nalishlar bo‘yicha amalga oshiriladi. Ushbu usullar ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalarini qonuniy ravishda himoya qilish va ularning xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan bo‘lib, quyida ushbu obyektlarni himoya qilishning asosiy usul va mexanizmlariga to‘xtalib o‘tamiz:

Patentlash. O‘zbekiston Respublikasida yangi ixtirolar, sanoat namunalarini va foydali modellarni patentlash orqali ularning huquqiy himoyasini ta’minlash mumkin. Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari to‘g‘risidagi qonunning 5-moddasiga ko‘ra, sanoat mulki obyektiga bo‘lgan huquq muallifga (hammualliflarga) yoki uning (ularning) huquqiy vorisiga (huquqiy vorislariga) tegishli bo‘ladi va patent bilan tasdiqlanadi. Sanoat mulki obyektining patenti sanoat mulki obyekti ustuvorligini, unga mualliflikni va patent egasining sanoat mulki obyektiga egalik qilish, undan foydalanish hamda uni tasarruf etishga doir mutlaq huquqini tasdiqlaydi.

Patentlar mulkdorlarga bir necha yil davomida, ya’ni amaldagi tartib bo‘yicha ixtiroga 20 yil mobaynida, sanoat namunasiga 10 yil mobaynida, foydali modelga esa 5 yil mobaynida amal qiladi. Ushbu patenlar egasining iltimosnomasiga ko‘ra tegishli vakolatli organ

tomonidan ixtiro va sanoat namunasiga yana 5 yil, foydali modelga esa yana 3 yilga uzaytirib berilishi ham mumkin. Bu huquq orqali mulkdorlar boshqalar tomonidan uning sanoat namunasidan ruxsatsiz foydalanilishini to‘xtatish imkoniyatiga ega bo‘ladi[1].

Ushbu amal qilish muddatlari Yevropa mamlakatlari bilan deyarli bir xil bo‘lib, ba’zi davlatlarda bir oz farq qilishi mumkin. Xususan, Yevropa patent konvensiyasiga a’zo davlatlarda ixtiroga 20 yil mobaynida, sanoat namunasiga 5 yil (jami 25 yilga beriladi, har 5 yilda uzaytirib borish mumkin) mobaynida, foydali modelga esa 10 yil mobaynida amal qiladi[2].

Ixtiro, foydali model va sanoat namunalarining patentlari uchun amal qilish muddatlari turlicha bo‘lishining sababi shuki, ularning huquqiy mazmuni, texnik darajasi, yaratilish murakkabligi va ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati bir-biridan farq qilishi bilan bog‘liq[3].

Ixtirolar odatda katta ilmiy izlanish, muhim texnik yangilik va iqtisodiy sarmoya talab qiladigan ishlanmalardir. Shuning uchun, ularga odatda 20 yil mobaynida himoya beriladi, bu esa muallif yoki tadbirkorga kiritgan sarmoyasini qaytarib olish va daromad qilish imkonini beradi. Foydali model oddiyroq texnik yechim bo‘lib unda texnik yangilik mavjud bo‘lsa-da, u ixtiro darajasiga yetmaydi va oddiy takomillashtirish, amaliy yechimlar shaklida bo‘lganlig sababli nisbatan qisqa 5 yildan 8 yilgacha (Yevropa mamlakatlarida 10 yilgacha) muddatli himoya yetarli deb qaraladi. Oz muddat himoya qilishiga qaramay patent olish tezroq va arzonroqligi yuzasidan afzalligi ham mavjudligini ta’kidlab o‘tish mumkin. Sanoat namunasi esa texnik emas, vizual ya’ni estetik yechim bo‘lib, tashqi ko‘rinish (shakli, naqshi, dizayni) himoyasi hisoblanishi sababli unga 10 yildan 15 yilgacha patent himoyasi beriladi. Fikrimizcha, sanoat namunasiga himoya muddatini Yevropa patent konvensiyasiga a’zo davlatlarda bo‘lgani kabi 25 yilgacha patent berish o‘zining ijobiy natijasini berishi mumkin. Sababi, sanoat namulari odatda uzoq vaqt tijoratda foydalaniladi, buning natijasida mulkdorga o‘zining moliyaviy barqarorligini oshirishga xizmat qiladi.

Yangi va foydali ixtirolar, texnologik yechimlar va ilmiy ishlanmalar patentlanadi. Texnik yechimlar, usullar yoki qurilmalar kichik o‘zgarishlar va yangiliklarni o‘z ichiga olgan hollarda foydali model sifatida patentlanadi. Sanoat namunasi mahsulotning tashqi ko‘rinishidagi yangi va original dizaynlarni himoya qilishga mo‘ljallangan bo‘lib, bu usul quyidagi mexanizmlar orqali amalga oshiriladi: Sanoat namunasida yangi dizaynni ro‘yxatga olish orqali sanoat namunasi egasi boshqa shaxslar tomonidan uning dizaynini ishlatilishiga qarshi huquqiy himoya oladi. Uning patent bilan farqi shundaki, sanoat namunasi, asosan, tashqi ko‘rinish bilan bog‘liq bo‘lib, patent esa texnik xususiyatlarga ega ixtirolar va modellarni himoya qiladi;

Sanoat maxfiyligi va raqobatbardoshlikni himoya qilish. Agar bir korxona sanoat mulki obyektlarini yaratilishi bo‘yicha maxfiy ma’lumotlarga ega bo‘lsa (masalan, ishlab chiqarish usullari), bunday ma’lumotlar maxfiy saqlanishi kerak. Ularning oshkor

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

qilinishi raqobatni buzishi mumkin. Ushbu qonunbuzarliklarga nisbatan Ma’muriy va fuqarolik-huquqiy javobgarlik belgilanadi.

O‘zbekiston Respublikasida sanoat mulki maxfiyligi va raqobatbardoshlikni himoya qilish uchun bir qator huquqiy, institutsional va amaliy usullar qo‘llaniladi. O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, “Raqobat to‘g‘risida”gi qonun va boshqa qonunchilik normalari orqali bunday turdagi mulklar huquqiy himoya qilinadi. “Raqobat to‘g‘risida”gi qonunga ko‘ra, tijorat sirini ruxsatsiz olish yoki oshkor etish, boshqa korxonaning faoliyatiga xalaqit berish, mahsulot haqidagi noto‘g‘ri ma’lumot tarqatish taqiqlanadi.

Institutsional himoya qilishga bir qator mas’ul tashkilotlar mavjud bo‘lib, ular Intellektual mulk markazi davlat muassasasi (sanoat mulki obyektlarini ro‘yxatdan o‘tkazib patent beradi, huquqiy maslahatlar beradi, nizolar yuzasidan ekspertizalar o‘tkazadi), Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasi (nohalol raqobat va maxfiy ma’lumotlar buzilishi holatlarini ko‘rib chiqadi), Sud organlari (sanoat mulki huquqlari buzilganda da’vo arizalarini ko‘rib chiqadi hamda kompensatsiya yoki to‘xtatish choralari belgilaydi).

“Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari to‘g‘risida”gi Qonunga ko‘ra, patent berish haqidagi talabnoma materiallaridagi ma’lumotlar Vazirlik va Davlat muassasasi tomonidan sir saqlanishi kerak va ular haqidagi axborot talabnoma beruvchi yoki patent egasining roziligisiz berilmaydi. Talabnoma materiallaridagi axborotni ixtiro haqidagi talabnoma to‘g‘risidagi yoki foydali model va sanoat namunasi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi to‘g‘risidagi ma’lumotlar rasmiy ravishda e’lon qilingunga qadar oshkor etganlik qonunga muvofiq javobgarlikka sabab bo‘lishi belgilangan.

Hukumat tomonidan ko‘rsatiladigan yordam. Hukumat tomonidan sanoat mulki obyektlarini himoya qilishda ko‘maklashish va maslahatlar taqdim etish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda hukumat tomonidan institutsional, moliyaviy va rag‘batlantiruvchi yordamlar, axborot-ma’rifiy va tashkiliy yordam, xalqaro hamkorlik yordam choralari ko‘rsatiladi. Sanoat mulki obyektlari egalari yoki mulkdorlari uchun o‘rgatish va huquqiy yordam turlari ham mavjud bo‘lib, buning natijasida mazkur obyektlar himoyasi ta’minlanishiga yordam beriladi.

Qonuniy choralar ko‘rish. Agar sanoat mulki huquqi buzilgan bo‘lsa (masalan, patentni noqonuniy ravishda ishlatish), tegishli huquqiy jarayonlar orqali himoya qilish mumkin. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi yoki sud tizimi orqali himoya qilishning huquqiy mexanizmlari ham mavjud.

Ushbu usullar sanoat mulki obyektlarini himoya qilishning asosiy yo‘nalishlaridan bo‘lib, ular sanoat mulki obyektlari mulkdorlarining mulkiy huquqlarini himoya qilishga yordam beradi.

Sanoat mulki obyektlarini himoya qilish – bu nafaqat huquqiy zarurat, balki barqaror iqtisodiy taraqqiyot, innovatsion muhit

yaratish va adolatli raqobat tamoyillarini ta’minlash vositasidir. Ushbu mexanizmlarning samarali ishlashi natijasida nafaqat alohida mualliflar yoki kompaniyalar, balki butun jamiyat foyda ko‘radi. Shu sababli, har bir davlat va fuqaro bu yo‘nalishga jiddiy e’tibor qaratishi zarur.

Sanoat mulki obyektlarini huquqiy himoya qilish maqsadida o‘z davrida mazkur sohaga yaqin jabhalarda tadqiqot olib borgan sivilist olimlarning ishlariga to‘xtalib o‘tish o‘rinli bo‘ladi.

Respublikamiz mustaqillikka erishgunga qadar, intellektual mulkning ayrim obyektlari bo‘yicha tadqiqotlar amalga oshirilganligini ko‘rishimiz mumkin. Sivilist olim F.X.Sayfullayev kashfiyotchilik, ixtirochilik, mualliflik huquqlari obyektlarini o‘z darsligida umumiy huquqiy asoslarini bayon etgan[4].

2000-yilda yirik sivilist olim O. Oqyulov tomonidan “Intellektual mulkning huquqiy maqomi”[5] mavzusida doktorlik dissertatsiyasi muvaffaqiyatli himoya qilindi. Intellektual mulk huquqi obyektlarini huquqiy himoya qilish masalalari yuzasidan “Innovatsiya rivojlanishini ta’minlashda intellektual mulk huquqi institutlari ta’siri samaradorligini oshirish masalalari”, “Intellektual mulk va innovatsiya (Intellektual mulk huquqi institutlarining innovatsiya rivojlanishini ta’minlashdagi ta’sirini oshirishning moddiy va protsessual vositalari: milliy amaliyot va xorijiy tajriba) mavzusida monografiyalar ham chop etilgan[6]. 2011-yilda N.F.Imomov tomonidan “Intellektual mulk huquqining yangi obyektlari” monografiyasi chop etilgan[7].

O‘zbekistonda intellektual mulkning ayrim obyektlari bo‘yicha H.R. Rahmonqulov, I.B. Zokirov, D.M. Karaxodjayeva, S.S. Gulyamov, S.S. Xamroyev, R.J. Ro‘ziyev, S.B. Babakulov, M.X. Baratov, V.Y. Ergashev, G.A. Xudoyberdiyeva, S.I. Asfandiyarov, A.A. Ismanjanov, Z.S. Akramxodjayeva, S.M. Safoyeva, I.V. Biryukova, B.U. Axmadjonov va boshqalar tomonidan o‘rganilgan.

MDH mamlakatlari sivilist olimlari tomonidan intellektual mulk obyektlarini himoya qilish masalasi M.I. Braginskiy, V.V. Vitryanskiy, I.A. Zenin, V.A. Dozorsev, A.P. Sergeyev, Y.K. Tolstoy, Y.A. Suxanov, O.A. Gorodov, M.K. Suleymanov, E.P. Gavrilov, Y.G. Matveyev, A.L. Alferov, S.B. Masalina, I.A. Zenin[8] va boshqalarning asarlarida ham u yoki bu darajada o‘rganilgan.

B. Toshev O‘zbekistonda intellektual mulkni himoya qilish tizimining birinchi bosqichi 1991-1995-yillar, ikkinchi bosqich – 1996-2002-yillar, uchinchi bosqich – 2003-yildan boshlanadi va hozirgi davrni qamrab olgan bo‘lib, uni “Hamkorlar bilan ishlash davri” deb ham atash mumkin deb qayd etadi[9].

O‘zbekistonda sanoat mulki obyektlarini huquqiy himoya qilish sohasida so‘nggi yillarda bir qancha muhim rivojlanish tendensiyalari amalga oshirildi. Xususan, sohaga oid qonunchilik bazasi vujudga kelgan munosabatlarga mutanosib ravishda mustahkamlanib bormoqda. “Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari to‘g‘risida”gi qonuni qabul qilinganidan boshlab shu kunga qadar jami 13 marotaba o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritildi.

Ular mualliflar huquqini yanada aniqroq belgilashga va patent olish jarayonini soddalashtirishga xizmat qilib kelmoqda. Shuningdek, sanoat mulkini raqamli platformalarda ro‘yxatdan o‘tkazish imkoniyatlari ham kengayib bormoqda. Bunday elektron platformalar ro‘yxatdan o‘tkazishning shaffofligi va tezkorligini ta’minlamoqda.

Sanoat mulkini boshqaruvchi idoralar faoliyatining takomillashuvi so‘nggi yillarda sezilarli darajada rivojlandi. Bu rivojlanish mamlakatda innovatsion iqtisodiyotga o‘tish, sanoat mulki huquqlarini himoya qilish va xorijiy investitsiyalarni jalb etish strategiyasiga mos ravishda olib borilmoqda. Bunda, Intellektual mulk markazi davlat muassasasining roli kuchaytirilib, xalqaro standartlarga mos xizmatlar ko‘rsatish mexanizmlari joriy etilmoqda. Patent huquqlarining muhofazasi va mualliflar manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha monitoring tizimi shakllanmoqda. Bundan tashqari, xalqaro integratsiya va hamkorlik darajasi ham rivojlanib, O‘zbekiston WIPO (Butunjahon intellektual mulk tashkiloti) a’zosi sifatida xalqaro patent tizimlariga (masalan, PCT) qo‘shilgan. Bunda bitimlar asosida chet elda sanoat mulki obyektlarini himoya qilish imkoniyatlari kengaymoqda.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonda sanoat mulkini himoya qilish tizimi modernizatsiya, raqamlashtirish, va xalqaro integratsiya orqali izchil rivojlanmoqda. Bu esa mahalliy ixtirochilarning huquqlarini ta’minlash, investitsiya muhiti va raqobatbardoshlikni oshirishga xizmat qilmoqda. Sanoat mulki obyektlarini (ixtiro, foydali model, sanoat namunasi) huquqiy himoya qilish usul, mexanizmlari va ularni rivojlanish tendensiyalari orqali mulkdorlar yoki tadbirkorlar o‘z mehnat mahsulini huquqiy jihatdan himoya qiladi, noqonuniy foydalanishdan saqlaydi, bozorda raqobatni ta’minlab, adolatli sharoit yaratadi, xalqaro savdo va hamkorlikni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etib, xalqaro patentlar orqali sanoat mulkini eksport qilish osonlashadi. Shuningdek, iqtisodiy manfaat, intellektual mulkni qadrlash, milliy innovatsion rivojlanish va global raqobatga tayyorlikning asosi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. https://lex.uz/uz/docs/-76671#:~:text=Ixtiro%20patentining%20amal,yuritiladi)%20bilan%20belgilanadi.
2. https://www.epo.org/en/legal/epc
3. https://www.wipo.int/en/web/patents
Sayfullayev F. O‘zbekiston SSRning Grajdanlik huquqi. 2-qism. –T.: O‘qituvchi. 1988. -280 b.
5. Oqyulov O. Intellektual mulkning huquqiy maqomi. Yuridik fanlar doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. –T.: TDYUI, 2001. -320 b.
6. Oqyulov O. Innovatsiya rivojlanishini ta’minlashda intellektual mulk huquqi institutlari ta’siri samaradorligini oshirish masalalari. –T., Turon zamin ziyo, 2016, 300 b.; Oqyulov O. Intellektual mulk va innovatsiya (Intellektual mulk huquqi institutlarining innovatsiya rivojlanishini ta’minlashdagi ta’sirini oshirishning moddiy va

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

protsessual vositalari: milliy amaliyot va xorijiy tajriba). –T., Turon zamin ziyo, 2016, 390 b.

6. N.F.Imomov. Intellektual mulk huquqining yangi obyektlari /Mas’ul muharrir yu.f.d., prof. O.Oqyulov. –Toshkent: TDYUI nashriyoti, 2011. -215 bet.

7. Zenin I.A. Grajdanskoye i torgovoye pravo kapitalisticheskix stran. -M.: 1992. -128 s.

8. Intellektual mulk huquqi qonunchiligini takomillashtirish: nazariya va amaliyot muammolari: Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – T.: Yuristlar malakasini oshirish markazi. (– 178 b.) 17-24-b.